

FRAZEMALARNING BADIY ASAR OBRAZLILIGIDA TUTGAN O‘RNI

Marjona Hamroqulova

tadqiqotchi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

E-mail: marganapendragon7@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada badiiy asar obrazliligini ta’minlashda frazemalarning tutgan o‘rni batafsil yoritib berilgan. Bunda, asosan, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridan olingan misollardan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologik birliklar, lisoniy imkoniyatlar, obrazli ifodalash, ekspressiv – baho bo‘yog‘i, funksional – uslubiy bo‘yoq.

Til badiiy adabiyotning birinchi elementi, material, asosiy quolidir. Bizning ong-tuyg‘umizga ta’sir etib, bizni hayajonga soladigan obraz va manzaralar, lug‘aviy birliklar va gaplar yordamida tasvirlanadi. So‘z san’atkori badiiy asar tili ustida ishlar ekan, tilda turg‘unlik kasb etgan, nutqda keng iste’mol qilinadigan so‘zlarni ishlatadi, o‘tkinchi, ikkinchi darajali, til taraqqiyoti uchun xarakterli bo‘lmagan elementlarni o‘z asarlari tiliga kiritmaslikka harakat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, yozuvchi til boyligidan fikrni eng to‘g‘ri, aniq va lo‘nda qilib ifodalaydigan vositalarni terib, saralab ishlatadi. Shu yo‘sinda u tildan foydalanishning, gapirish va yozishning o‘ziga xos mezonini, namunasini yaratadi. Shu orqali u nutq ravonligi, sofligi va ta’sirchanligi uchun kurashadi. Adabiy tilning sofligi va ta’sirchanligini ta’minlovchi vositalardan biri frazeologizmlar bo‘lib, badiiy adabiyot va so‘zlashuv nutqi frazeologizmlar uchun ham asosiy manba hisoblanadi.

Badiiy nutq obrazli nutq, obrazli til hisoblanadi, chunki badiiy adabiyotda hayot obrazlar, manzaralar yordamida aks ettiriladi. Bizning ong-tuyg‘umizga ta’sir etib, bizni hayajonga soladigan bu obraz va manzaralar so‘zlar yordamida, so‘zlardan tashkil topgan gaplar yordamida tasvirlanadi. Frazeologik birliklar zamirida ma’lum obraz, muayyan hodisa, predmet tasavvuri yotadi. Bunday obrazlilik iboralarning stilistik imkoniyatlarini oshiradi, ularni tilning kuchli ifoda vositalaridan biriga aylantiradi. Shuning uchun yozuvchilar mazkur birliklar zamiridagi obrazlardan atroflicha foydalanishga harakat qilishadi, ayrim hollarda bu obrazlar yordamida yangi iboralar ham yaratadilar. Frazeologik birliklar eng ko‘p badiiy matnlarda, qisman publitsistikada, ilmiy-ommabop matnlarda qo‘llaniladi. Badiiy matnlarda

frazeologizmlarning tutgan o'rnini muhim ahamiyatga egadir. Mualliflar frazeologik birliklardan badiiy matnlarda turli maqsadlarda foydalanishadi: voqea-hodisani obrazli ifodalash uchun: ko'pgina frazeologik birliklar aniq, ko'rgazmali tasvir uchun xizmat qiladi, shaxs – predmet, voqea – hodisaning obrazli ifodasi bo'lib keladi. Masalan: tili uzun, til uzatmoq, boshi ko'kka yetmoq, dunyoni suv bossa, to'pig'iga chiqmaydi kabilar.

Bu lisoniy birlik imkoniyatini mumtoz adabiyotimiz atoqli vakillari ham g'oyat yaxshi bilishgan va o'z asarlarida frazemalardan unumli va o'rinli foydalanishgan. Negaki, frazemalar badiiy asarda voqea-hodisa, belgilarni nutqda obrazli ifodalash, fikrning ta'sirchanlini oshirishda noyob til boyliklaridir. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida iboralarning mohirona qo'llanishi shundan dalolat beradi. Masalan, Va yuz mashaqqat bila bir baytkim bog'lashturg'aylar, da'vo **ovozasin yetti falakdin oshurg'aylar**¹.

Yoki ushbu gapda qo'llangan frazemaga e'tibor qarataylik:

Seli balodin tavajjuhga nam yetmagay va sarsari ofat **bir tori mo'yin xam etmagay**.

(Balo seli kelsa, unga nam yetmagan va ofat shamoli essa, bir tola mo'yini ham egolmaydi, ya'ni umuman zarar yetmaydi).

"Bir tori mo'yini xam etmaslik" iborasi hozirgi lug'at kitoblarda uchramadi. "Bir tola tukini egmaslik" deb ifodalasa bo'ladigan bu frazema ma'nosini "umuman zarar yetkaza olmaslik, hech ham ranjita olmaslik" deb izohlash mumkin.

Hozirgi kunda arxaiklashib qolgan bu iborani o'z vaqtida Navoiyning munosib shogirdi Abdulla Qodiriy ham o'z asarlarida bir necha bor qo'llagan:

- Shahidbek maxdumga qaradi, maxdum Anvarga qarshi chiqdi: - Sen o'z ishingni bilib qilsang, vazifangda sustlik ko'rsatmasang, - dedi, - senga butun olam dushman bo'lg'anda ham **bir mo'yingni xam qilolmas**².

Qodiriy tilini chuqur bilmagan hozirgi muharrirlar bu iborani "mo'yini kam qila olmaydir" tarzida buzib qo'llamoqda: "Yaxshi, Girmonning yuz o'n besh gaz to'pi bor, men buni Girmonning o'zidan-da yaxshiroq bilamen, ammo u g'arqi ohan bo'lsa ham Rusiyaning bir tola **mo'yini kam qila olmaydir**"³.

"Mahbub ul-qulub"da uchragan ayrim frazemalar bugungi kunda tilimizda mavjud aynan shunday iboralardan biroz ma'no o'zgachaligi bilan ajralib turadi. Masalan: Tavakkul ahli barcha asbob vositasidin **ko'z yumubdurlar**... Bu frazemalar lug'ati kitobida "ko'ra-bila turib e'tiborsiz qoldirmoq" deb izohlangan⁴. O'TILda bu

¹ Аlisher Navoiy. Мукаммал асарлар тўплами. 14-жилд. -Т.: Фан, 1998. -Б.22.

² Қодирий Абдулла. Мехробдан чаён. -Т.: Ғафур Ғулум номидаги Бадий адабиёт нашриёти. 1967. -Б. 38.

³ Қодирий Абдулла. Диёри бакир. -Т.: янги аср авлоди, 2007. -Б. 79.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1978. -Б. 150.

ibora ma'nosi "1) bilib turib, o'zini bilmaslikka solmoq; yashirmoq; 2) olamdan o'tmoq, qazo qilmoq, o'lmoq" tarzida bayon qilingan¹. Navoiy qo'llagan bu frazema ijodiy ma'no bo'yog'iga ega bo'lib, tirikchilik ne'matlariga "boqmaslik, qaramaslik, o'zni tiyish"ni anglatadi.

Shoir g'azallaridan birida "ko'zi uchmoq" iborasi ko'p qo'llangan. Bu iboradan og'zaki nutqda ko'pincha kinoya ma'nosini ifodalash uchun foydalaniladi. Navoiy ijodida esa ma'shuqani ko'rish ishtiyoqidagi oshiqning qalb talpinishlarini berish uchun qo'llangani kuzatiladi.

Ko'zum ucharki, humoyun yuzungni ko'rgay bot,
Biaynih anga kirpiklar o'lmish ikki qanot².

Demoqchiki, ko'zim uchmoqdaki, sening qutlug' yuzingni yana ko'rsam kerak.
Uchayotgan ko'zimga kipriklarim xuddi ikki qanot bo'lganday.

Ey Navoiy, ko'rgali oni **uchar** har dam **ko'zum**,
Lek ne sud uchmoq ul qushki manga yo'qtur qanot.
Yoki:

Ul pariy **ko'zdin uchar**, ko'z dag'i shavqidin uchar,
Vahki, men uchqali ham yo'qturur egnimda qanot³.

Har uchala baytda ham "ko'z uchmoq" iborasi orqali ma'shuqa visoliga intizor, uni ko'rish ishtiyoqida o'rtanayotgan oshiq holati tasvirlangan. Uchinchi baytda "ko'zdan parining uchishi" hamda "ko'zning shavqdan uchishi" omonim iboralar bo'lib kelgan. Xalqda "ko'zning uchishi"ga yaxshilik alomati sifatida, ya'ni xursandchilik kelishidan darak, deb qaralgan.

"Mahbub ul-qulub"dan olingan mana bu parchada ham birato'la uchta frazema qo'llanganini ko'rishimiz mumkin: Zolim va bedard suhbatida **nukta surma**, nammom na nomard muloyamatida **dam urma**. Dono **ilikdin borg'ondin** so'z aytmas.

Obrazli ifodalash funksiyasi ichki ta'sirchan shaklga – obrazli tasavvurga ega bo'lgan frazemalar uchun ko'proq xarakterlidir:

1. Ba'zan frazeologizmlar muayyan tushunchani obrazli nomlab, ifodalab qolmasdan, butun matnga kuchli obrazlilik baxsh etadi. Misol: Va har necha zulm qilg'on anga qonmoq yo'q. Soiqaedur, aql-u din **xirmanin kuydurguchi** va sarsaredur alarning **kulin ko'kka sovurguchi**.

(Ishq yashindur, aql-u din xirmonini kuydiradi, u bo'rondur, kuyganlarning kulini ko'kka sovuradi).

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, Бешинчи жилд. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 84.

² Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1-жилд. -Б.93.

³ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 4-жилд. -Б.55-56.

2. Turli holatlarni baholash uchun: frazemalarga biror voqea-hodisa, belgi-harakat yoki holatni nomlash bilan birga ularga salbiy yoki ijobiy baho berish vazifasi ham xos bo'lib, badiiy asarlarda o'zining salmoqliligi bilan ajralib turadi. Misol: 1. Zindon chohidin o'g'rilar **ko'ngli tiyraligi** (yuragiga g'am tushishi) ma'lum. 2. (Odil podshohlar) zabtidin amaldorlar **qalami sinuq** va sitamkorlar **alami yiquq**. 3. Agar **qon to'kmak** anga pasha, kimki joni bor anga andesha.

Ushbu gaplardagi frazemalar (o'g'ri, amaldor, sitamkor, zolim) kishilar holatini baholash, salbiy munosabatlarni bildirishga xizmat qilgan.

3. Badiiy matnda emotsionallikni ifodalash uchun: mazkur frazemalar asosiy ma'no-mohiyatini ifodalabgina qolmasdan, balki muallifning shodligi, g'azabi, nafrati, o'kinchi, qo'rquvi, kinoyasi, jirkanishi singari emotsional munosabatlarni ham ifodalab keladi. Misol: 1. Itga itlik aylamak jon-u ko'ngul birla bo'lur. 2. Yamon kotib manzili qalamdonidek choh aro bo'lsun, qalamidek boshi yaro va yuzi qaro bo'lsun. 3. Qatl uchun jon bermak shiori, el mol-u jonig'a qasd – shikori.

Yuqorida keltirilgan asar parchalarida qo'llanilgan frazemalar birinchi gapda jirkanish, ikkinchi gapda g'azab, uchinchi gapda nafrat kabi munosabatlarni ifodalab kelishga xizmat qilmoqda.

4. Nutqda ekspressivlikni ifolash uchun: ekspressiya so'zi lotincha bo'lib, nutqning ta'sirchanlik, jo'shqinlik xususiyatini ifodalaydi, bu xususiyat, ayniqsa, frazemalarni ularni aniqlovchi, sifatlovchi va harakat-holat belgisini ko'rsatuvchi so'zlar bilan birga qo'llash yordamida yuzaga keladi. Misol:

Amal rishtasin tama' ignasiga chekib, ul bezabonning ko'rar ko'zni ham tikib. Ko'p lahv **hayo pardasin chok etar**. ...solik ul yon **nazar o'qin otmag'ay** va ko'ngliga alarning raddu qabulin mutlaqo yo'latmag'ay. Umid ulkim, o'qug'uvchilar diqqat va **e'tibor ko'zi bila nazar solg'aylar**.

Yuqorida qayd qilinganidek, frazemalar obrazli til birliklari hisoblanadi. Shu bois yozuvchi va shoirlar ulardan keng foydalanadilar. Tildagi obrazlilikni ifodalovchi vositalar ichida frazeologizmlar alohida o'rin tutadi. Chunki ular kesatiq, nafrat, jirkanish, so'kish, qarg'ish kabi salbiy; erkalash, hazil, rag'batlantirish kabi ijobiy qo'shimcha ma'no nozikliklarini ifoda etuvchi obrazli birikmalar hisoblanadi. Frazeologizmlarning asosiy qismi nutqda ma'lum uslubiy maqsad – ekspressivlik uchun xizmat qiladi. Shu bois frazemalar badiiy matnda obraz, personaj, xarakter qirralarini to'la ochishda, voqea-hodisa, holatlarini obrazli, bo'rttirib tasvirlashda qo'llanadigan muhim til birligi hisoblanadi. Yozuvchi shu maqsadda ulardan foydalanadi¹. Shu jihatlari bilan frazemalar badiiy asar qimmatini oshirishda muhim

¹ Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек тилида фразеологик birlikларнинг функционал – услубий хусусиятлари: Филол.ф.доктор...авреф. – Тошкент, 1993. – Б. 25.

o‘rin tutadi. Yozuvchi va shoirlar frazeologik birliklarni o‘z asarlarida qahramon xarakteri va hodisalarni ochishda ishlatadilar. Voqea-hodisalarni tasvirlashda o‘quvchiga estetik zavq berishda ulardan mohirona foydalanadilar.

Har qanday frazeologizm o‘sha xalqning turmush sharoiti, udumlari bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Frazelozizmlarning kelib chiqish omillari ham har bir xalqning o‘z mentalitetiga xosdir. Frazelozigik birliklarning badiiy matnda qo‘llanilishi bilan bog‘liq jarayonlari o‘ziga xos tarzda murakkab hamdir. Mazkur birliklarning mazmun tarkibida ham frazeologik, ham uslubiy ma‘nolar mavjud. Frazelozigik birliklarning uslubiy ma‘nosi ikki komponentdan iborat:

- a) ekspressiv – baho bo‘yog‘i;
- b) funksional – uslubiy bo‘yoq.

Bu ikki xususiyati badiiy matnda qo‘llanilganda ham frazeologizmlar tarkibida yashash huquqiga ega. Mazkur til birliklarining uslubiy xoslanishini belgilashda ichki shaklning jozibadorligi, semantik, ohangdoshlik va miqdoriy mezonlardan kompleks foydalanish, frazeologizmlarning ekspressiv – baho bo‘yog‘ini ham inobatga olish yaxshi samara beradi. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni o‘quvchi ko‘zi o‘ngida aniq va to‘la gavdalanitirishda frazeologik iboralarning ma‘nodoshligidan keng foydalaniladi. Toqati toq bo‘lmoq – sabr kosasi to‘lmoq, burni ko‘tarilmoq – dimog‘i shishmoq, yaxshi ko‘rmoq – ko‘ngil bermoq, ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq – oyoq tirab olmoq, og‘ziga talqon solmoq – mum tishlamoq kabilar frazeologik ma‘nodoshlikka misol bo‘ladi. Jumla tarkibida kelgan ma‘nodosh iboralar tasvir obyektini, qahramon bilan aloqador biror bir sifatni, xususiyatni detallashtirib, ikir-chikirigacha ko‘rsatib tasvirlashga xizmat qiladi. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘zi o‘ngida aniq va to‘la gavdalanitirishda frazeologik iboralarning o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-hoлатlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir. Yozuvchilar, odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo‘llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o‘zgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi ma‘no nozikliklari bilan to‘yinib boradi. Xalq iboralarni qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma‘no talqini berishning yo‘llari juda xilma-xildir. Bunga «umumtil iborasi zamiridagi ma‘noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o‘zgartirish va uning semantik-stilistik vazifalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma‘nolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin»¹.

¹ Шомаксудов А ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. –Т: 1974. 70-б.

Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari B.Yo‘ldoshev tomonidan keng o‘rganilgan¹. Badiiy matnda eng ko‘p uchraydiganlari quyidagilardan iborat:

1. Ibora tarkibidagi ayrim so‘zlarni almashtirish: Yana uch kun jim turib bersangiz, **mulla mingan velosipeddek** yuvosh bo‘lib qolasiz. (S.Ahmad) Mingboshining falon-falonlari bizni **ko‘ziga iladimi?**-deb xabar ham qilmabmiz. Nega indamaysanlar? Og‘zingga paxta tiqdingmi hammang? Dunyoda **o‘z oyog‘iga o‘zi bolta chopadigan** ahmoq ham bo‘ladimi? (Cho‘lpon)

2. Ibora tarkibini kengaytirish. Bunda ibora tarkibiga yangi so‘z kiritiladi. Tilimizda jar solmoq iborasi mavjud. Cho‘lpon uni **qo‘shkarnayi bilan jar solmoq** tarzida kengaytiradi: Mingboshilikni tortib olib, el ko‘zida tamom sharmanda qiladiganday! Abdisamat bilan Yodgor echki, Umarali puchuqlar yana qo‘shkarnayi bilan jar soladiganday!

3. Ibora tarkibini qisqartirish. Ibora tarkibidagi ayrim so‘zlarni tushirib qo‘llash tildagi tejamkorlik talabi bilan amalga oshiriladi. Ammo yozuvchilar bundan o‘z badiiy-lisoniy maqsadiga ko‘ra foydalanadilar. Tilimizda qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urmoq iborasi mavjud bo‘lib, uning ma‘nosi “ixlosi qaytib, ishonmay qo‘yib, diqqat-e‘tibordan soqit qilmoq” tarzida izohlanadi. Cho‘lpon «Kecha va kunduz» romanida uni mana bunday qisqartirilgan holda qo‘llaydi: Undan keyin, qishloq odamlarining shunaqa o‘zboshimcha harakatlariga yo‘l qo‘yib bersak, oz vaqt ichida qishloqdan **qo‘l yuvishimiz kerak** bo‘ladi. Bu iboraning noyib to‘ra nutqida qo‘l yuvmoq tarzida qisqarishi nafaqat shakl ixchamligi uchun, balki ma‘no siljishi uchun ham xizmat qilgan. Noyib to‘raning “voqealar shu taxlit davom etsa, oz vaqt ichida biz qishloqni tashlab chiqishimizga to‘g‘ri keladi” demoqchi ekanligi mazkur ibora orqali ta‘kidlangan. Bundan ko‘rish mumkinki, ayni iboraning qisqargan varianti “tashlab chiqmoq”, “ajralmoq”, “qochib qolmoq” kabi yangi ma‘no qirralari bilan matn badiiyatini boyitgan.

Badiiy asarda qo‘llanilgan iboralarni o‘rganishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdorini (fondini) aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi. Ana shunday tahlilda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon bo‘ladi. Yuqorida ta‘kidlanganidek, badiiy matnda, umuman, yozma va og‘zaki matnlarda frazemalar qo‘llanilganda, bu birliklar bir qator vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning bir guruhi uzual, ya‘ni lisoniy xarakterga ega bo‘lsa, qolganlari okkazional, ya‘ni nutqiy (uslubiy) vazifalardir. Frazeologizmlarning ichki ma‘nosi, ichki tabiati har qanday badiiy matnda ro‘yobga chiqadi.

¹ Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари.-Самарқанд, 1999. -Б. 95.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. XX jildlik. 1-jild. – T.: Fan, 1987.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. XX jildlik. 4-jild. – T.: Fan, 1989.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. XX jildlik. 14-jild. – T.: Fan, 1998.
4. Qodiriy Abdulla. Mehrobdan chayon. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, 1967.
5. Qodiriy Abdulla. Diyori bakr. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T.: O'qituvchi, 1978.
7. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1999.
8. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol.f.doktor...avtoref. – Toshkent, 1993.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. Beshinchi jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
10. Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. – T.:1974.